

## **HUDUDLARARO KO'CHISH ORQALI SOLIQDAN QOCHISHGA QARSHI YURIDIK CHORALARNI KUCHAYTIRISH**

*To'rayev Dilshod Xasanovich*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

Yuridik shaxsning manzil o'zgarishi - bu faqatgina geografik holatdagi ko'chish emas, balki soliq organlari bilan aloqadorlikning butunlay yangilanishini bildiradi. Yangi hududda yuridik shaxs avvalgi faoliyati bo'yicha ma'lumotlar bazasidan uziladi va yangi joyda qayta shakllanadi. Bu esa ayrim subyektlarning soliqdan qochish amaliyotiga imkon yaratishi mumkin.


**1-jadval.**

### **Yuridik shaxslarning soliq qarzdorligi asosida qayta ro'yxatdan o'tishi rad etilgan holatlari (2022–2024 yillar)<sup>1</sup>**

<b>Yil</b>	<b>Umumiy rad etilgan arizalar soni</b>	<b>300 BHM (va undan ortiq) qarzdorlar</b>	<b>Ulushi (%)</b>
2022	4 112	1 045	25,4%
2023	5 706	1 948	34,1%
2024	6 314	2 378	37,6%

Yuridik shaxslarning qayta ro'yxatdan o'tish jarayonida soliq intizomining muhim mezon sifatida ko'rilishi iqtisodiy islohotlar kontekstida o'zini oqlamoqda. 2025-yil 1-avgustdan boshlab amalda bo'lgan BHM (412 000 so'm) asosida 123,6 million so'mdan ortiq soliq qarzi mavjud bo'lgan subyektlarning manzilini o'zgartirish orqali qayta ro'yxatdan o'tishiga to'sqinlik qilinishi qonunchilikda mustahkamlab qo'yilgan.

<sup>1</sup> PwC. 2025, February 9. Uzbekistan, Republic of - Corporate - Tax credits and incentives.  
<https://taxsummaries.pwc.com/republic-of-uzbekistan/corporate/tax-credits-and-incentives>



**1-rasm. Soliq hisobotlarini topshirmagan yuridik shaxslar soni (2020–2024 yillar)<sup>2</sup>**

Bu esa, o‘z navbatida, byudjet tushumlari barqarorligini ta’minlash, soliq intizomini oshirish va sun’iy migratsiyalar orqali soliqdan qochish amaliyotini kamaytirishga xizmat qiladi.

**2-jadval.**

**2023-yilda soliq hisobotidagi muvofiqlik va rad etilgan ro‘yxat soni (tahliliy kesim)<sup>3</sup>**


Hisobotdagi muvofiqlik darajasi (%)	Ro‘yxatdan o‘tish rad etilganlar soni	Ulushi (%)
90% dan yuqori	318	5.4%
75% – 89%	941	15.9%
50% – 74%	2 164	36.6%
49% va undan past	2 971	50.2%
<b>Jami</b>	<b>6 394</b>	<b>100%</b>

Bu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, soliq hisobotlaridagi muvofiqlik darajasi qanchalik past bo‘lsa, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish rad etilishi ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi.

<sup>2</sup> PwC. 2025, February 9. Uzbekistan, Republic of - Corporate - Tax credits and incentives.

<https://taxsummaries.pwc.com/republic-of-uzbekistan/corporate/tax-credits-and-incentives>

<sup>3</sup> EY. 2025, July 2. Doing business in Uzbekistan. <https://www.ey.com/content/dam/ey-unified-site/ey-com/en-uz/documents/doing-business-uz-2025.pdf>



## 2-rasm. Qayta ro'yxatdan o'tkazish rad etilishi va soliq qarzi o'rtasidagi bog'liqlik<sup>4</sup>

Yuridik shaxslarning qayta ro'yxatdan o'tishi soliq qarzi va hisobot intizomiga bevosita bog'liqdir. 300 BHM mezoni qat'iy moliyaviy chegara sifatida amalda ishlatilmoqda, biroq unga oid protsessual huquqlar, shikoyat mexanizmlari va ehtimoliy bo'shliqlar hali to'liq yoritilmagan. Shuningdek, hisobotlardagi noto'g'ri aks ettirish, aylanmani yashirish va kechiktirilgan topshiruvlar qayta ro'yxatdan o'tishni jiddiy xavf ostida qoldiradi.

AQShda yuridik shaxslar ro'yxatga olish va qayta ro'yxatdan o'tkazish tartibi asosan shtat darajasida amalga oshiriladi, ammo soliq majburiyatlarini bajarilishi ustidan nazoratni **IRS (Internal Revenue Service – Ichki daromad xizmati)** olib boradi.<sup>5</sup>

IRS yuridik shaxsga **Employer Identification Number (EIN)** berganidan so'ng, har yili Form 1120 (korporatsiya uchun soliq hisobot shakli) va boshqa shakllar asosida ularning faoliyatini monitoring qiladi. Agar soliq majburiyatlari bajarilmasa yoki noto'g'ri ko'rsatilsa:

- EIN bloklanadi;
- yuridik shaxs “non-compliant” ro'yxatiga tushadi;
- kredit tashkilotlari va davlat tashkilotlari bilan shartnoma tuzishga ruxsat berilmaydi.

<sup>4</sup> O'sha manba

<sup>5</sup> Wolters Kluwer. Tax avoidance is legal; tax evasion is criminal. <https://www.wolterskluwer.com/en/expert-insights/tax-avoidance-is-legal-tax-evasion-is-criminal>

Ammo ro'yxatdan o'tkazish yoki manzilni o'zgartirish jarayonining o'zini to'xtatish emas, **post-ro'yxat nazorati** qo'llaniladi. AQSh tajribasi soliq intizomini tartibga solishda kuchli **avtomatlashtirilgan monitoring** va **reyting asosidagi yondashuvni** afzal ko'radi.

Germaniyada yuridik shaxslar Handelsregister (Tijorat reestri) orqali ro'yxatdan o'tadi. Soliq qarzdorligi mavjudligi ularning ro'yxatdan o'tishiga to'g'ridan-to'g'ri to'sqinlik qilmaydi.<sup>6</sup> Biroq ro'yxatdan o'tganidan so'ng, agar u qarzdor bo'lsa:

- Soliq idorasi avtomatik tarzda ogohlantirish yuboradi;
- Qarzdor yuridik shaxsga davlat bilan shartnoma tuzish va subsidiya olish **cheklanadi**;
- Kredit reytingi past baholanadi.

Germaniyada shuningdek, **Soliq tarixiga ega yuridik shaxs reytingi** (Steuerliche Compliance Index) mavjud bo'lib, bu reyting davlat xizmatlaridan foydalanishda mezon sifatida qaraladi. Yana bir o'ziga xos jihat: **“Skonto” modeli** asosida o'z vaqtida soliq to'lagan subyektlarga rag'bat beriladi.

Koreya Respublikasida ro'yxatdan o'tkazish jarayoni Milliy soliq xizmati (NTS) va Biznes reestrlari orqali integratsiyalashgan. Soliq qarzdorligi mavjud bo'lgan yuridik shaxslar haqida ma'lumot **onlayn ravishda real vaqt rejimida** yangilanadi.<sup>7</sup>

Agar subyekt:

- oxirgi 6 oy ichida hisobot topshirmagan bo'lsa;
- qarzdorlik miqdori 100 million von (taxminan 75 000 AQSh dollari) dan ortiq bo'lsa,

u holda uning ro'yxatdagi statusi avtomatik ravishda **“faolsiz” (inactive)** holatga o'tadi. Bunda:

- bank hisoblari bloklanadi;
- davlat bilan ishlash imkoniyati cheklanadi;
- raqamli platformalarga kirish cheklovga olinadi.<sup>8</sup>

Bu tizimda soliq idoralari ariza ko'rib chiqmaydi, balki **integratsiyalashgan axborot tizimi** orqali avtomatik javoblar yuboradi. Bu esa inson omili aralashuvisiz tezkor va adolatli natijalarni ta'minlaydi.

Rossiya Federatsiyasida Federal soliq xizmati (ФНС) yuridik shaxslarning ro'yxatga olinishi va faoliyat yuritishini “Yagona davlat reestri” orqali nazorat qiladi.

<sup>6</sup> Commenda. Germany annual compliance requirements. <https://www.commenda.io/germany/annual-compliance-for-businesses>

<sup>7</sup> KPMG. Country tax profile: South Korea. <https://assets.kpmg.com/content/dam/kpmg/xx/pdf/2018/08/south-korea-2018.pdf>

<sup>8</sup> Deloitte. 2025. International tax Korea (ROK) highlights 2025. <https://www2.deloitte.com/content/dam/Deloitte/global/Documents/Tax/dttl-tax-koreahighlights-2025.pdf>

2021-yildan boshlab soliqdan qochish maqsadida manzilni ko'p marotaba o'zgartirgan yuridik shaxslar alohida e'tiborga olinmoqda.<sup>9</sup>

**Rad etishning qonuniy asoslari quyidagilar:**

- Soliq qarzi mavjudligi (muddati 3 oydan ortiq);
- So'nggi 1 yil ichida 2 va undan ortiq manzil o'zgarishi;
- Soliq hisobotlaridagi nomuvofiqliklar.<sup>10</sup>

Shuningdek, yuridik shaxsning manzili "ommaviy ro'yxatga olingan" binolarda joylashgan bo'lsa, bu holat ham soliq xavfi deb qaraladi. Soliq idorasi rad qarorini **elektron raqamli imzo bilan** rasmiylashtirib, arizachiga portal orqali yuboradi.

**3-jadval.**

**Xorijiy davlatlarda soliq intizomiga asoslangan ro'yxatdan o'tish siyosatlari<sup>11</sup>**

Davlat	Soliq qarzi mavjudligi rad etish asosi	Avtomatik monitoring	Ro'yxatdan o'tkazishga ruxsat, ammo cheklovli maqom
AQSh	Yo'q (ro'yxatdan keyingi nazorat)	Ha	Ha
Germaniya	Yo'q	Cheklangan	Ha
Janubiy Koreya	Bilvosita (status bloklanadi)	To'liq	Ha
Rossiya	Ha (bevosita asos)	Ha	Yo'q (faqat to'liq to'lovdan keyin)
O'zbekiston	Ha (300 BHM va boshqa asoslar)	Cheklangan	Yo'q

**Xulosa**

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki ushbu maqolada yuridik shaxsga tegishli bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan ortiq soliq qarzi mavjudligi yoki amalga oshirilgan tovar aylanma yoxud tovarlar importi bo'yicha realizatsiya hajmining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilmaganligi, shuningdek, soliq hisobotlarini belgilangan muddatlarda topshirmaganligi yuridik shaxsning manzilini o'zgartirish bilan bog'liq qayta ro'yxatdan o'tkazishni rad qilishga asos bo'lishi,

<sup>9</sup> Popkova, E. G., Bogoviz, A. V., Lobova, S. V., & Alekseev, A. N. (2019). Tax system of the Russian Federation: Current state and steps towards financial sustainability. *Sustainability*, 11(24), Article 6994.

<https://doi.org/10.3390/su11246994>

<sup>10</sup> Federal Tax Service of Russia. 2025. International forum | FTS | The Federal Tax Service of Russia 2025.

<https://www.nalog.gov.ru/eng/media/events/event1/>

<sup>11</sup> Muallif tomonidan internet manbalari asosida ishlab chiqilgan

yuridik shaxslarning manzil o'zgarishi bilan bog'liq qayta ro'yxatdan o'tishida **300 BHM miqdoridan ortiq soliq qarzi, soliq hisobotlaridagi muvofiqlik darajasining pastligi** hamda **hisobotlarni belgilangan muddatda taqdim etmaslik** asosiy rad etish omillari sifatida chuqur o'rganildi. Shuningdek, ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi, AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Rossiya asosida milliy tizimga tegishli baho berildi.

**Yuqoridagi holatlarni tahlil qilish orqali quyidagi takliflarni ilgari suramiz:**

- yuridik shaxs soliq qarzini tan olib, uni belgilangan muddat ichida to'lash majburiyatini olgan taqdirda, unga **“Shartli faol” (probatsion maqom)** berilishi lozim;

- xavfli ro'yxatga olish amaliyotlarini profilaktik tarzda aniqlash. **Manzilni 1 yil ichida 2 va undan ko'p marotaba o'zgartirgan, soliq hisobotlarini doimiy buzgan yuridik shaxslar avtomatik tarzda “Soliq migratsiyasi xavfi yuqori” toifasiga kiritiladi;**

- yuridik shaxsga tegishli bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan ortiq soliq qarzi mavjudligi yoki amalga oshirilgan tovar aylanma yoxud tovarlar importi bo'yicha realizatsiya hajmining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilmaganligi, shuningdek, soliq hisobotlarini belgilangan muddatlarda topshirmaganligi yuridik shaxsning manzilini o'zgartirish bilan bog'liq qayta **ro'yxatdan o'tkazishni rad qilishga** asos bo'lishi.